

## NUTQ AGRESSIYASINING KOGNITIV-DISKURSIV IMKONIYATLARI

Botirova Zebuniso Solijon qizi <sup>1</sup><sup>1</sup> Andijon davlat universiteti tayanch doktorantiGmail: [zebo0227@gmail.com](mailto:zebo0227@gmail.com)MAQOLA  
MALUMOTI

## ANNOTATSIIYA:

## MAQOLA TARIXI:

Received: 13.12.2024

Revised: 14.12.2024

Accepted: 15.12.2024

## KALIT SO'ZLAR:

nutq agressiyasi,  
lingvistik vositalar,  
pragmatik tahlil,  
madaniyatlararo  
kommunikatsiya,  
destruktiv nutq aktlari.

Mazkur maqolada nutq agressiyasining kognitiv-diskursiv imkoniyatlari lingvistik, pragmatik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda agressiv nutq aktlari kommunikativ faoliyatning destruktiv shakli sifatida ko'rib chiqilib, ularning lingvistik vositalari, pragmatik ta'siri va madaniyatlararo xususiyatlari o'rganiladi. Nutq agressiyasining leksik, sintaktik va stilistik jihatlarini turli madaniy kontekstlarda qanday namoyon bo'lishi aniqlangan (Лазебная, 2007, c. 41; Маслова, 2017, c. 127). Tadqiqot metodlari sifatida struktural-semantik tahlil, diskurs-analiz, lingvokognitiv tahlil va sopostavitel tahlil qo'llanilib, agressiv nutq aktlarining lingvistik darajadagi o'ziga xosligi ochib berildi (Лемо, 2022, c. 7; Маслова, 2017, c. 31). Ushbu metodlar agressiv kommunikatsiya vositalarining kontekstual va madaniy jihatlarini tahlil qilishda samarali natijalar berdi.

Ushbu maqola natijalari agressiv kommunikatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunish va ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Nutq agressiyasini lingvistik, pragmatik va madaniy nuqtai nazardan o'rganish jamiyatdagi ijtimoiy muloqotni yaxshilashga yo'naltirilgan konstruktiv yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**KIRISH.** Mavzuning dolzarbligi o'z ifodasini zamonaviy lisonshunoslikda agressiya fenomenining lingvistik va psixolinguistik jihatlarini o'rganish masalalarida topadi. Nutq agressiyasi, uning kognitiv-diskursiv imkoniyatlari tilshunoslikning turli sohalari: psixolingvistika, pragmalingvistika va kommunikativ lingvistika nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bu tadqiqotlar agressiyani insonning ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi destruktiv nutqiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi.

Nutq agressiyasining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, u avvalo kommunikativ xatti-harakatning murakkab shakli sifatida talqin qilinadi. Jumladan, agressiya fenomeni lingvistik tahlil doirasida insonning psixologik holati, madaniy-milliy o'ziga xosliklari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi (Маслова, 2017, с. 7). Agressiyaning lisoniy ifoda vositalari turli darajalarda - leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik jihatdan tahlil qilinib, uning lingvistik va ekstralingvistik sabab va omillari yoritiladi (Лето, 2022, с. 6).

Shunday qilib, nutq agressiyasining kognitiv-diskursiv imkoniyatlarini o'rganish lingvistik tadqiqotlarda o'ziga xos yo'nalish bo'lib, bu masalaning turli xil kommunikativ vaziyatlarda qanday amalga oshishini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu ma'noda, agressiyaning verbal va noverbal ifodalari orasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish alohida dolzarb hisoblanadi (Лазебная, 2007, с. 12).

#### **Tadqiqot metodlari va ilmiy yondashuvlar**

Mazkur tadqiqotda nutq agressiyasining kognitiv-diskursiv imkoniyatlarini chuqur o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv lingvistik, pragmatik va kognitiv tahlilning bir necha usullarini o'z ichiga olib, masalaning turli jihatlarini yoritishga qaratildi.

Birinchi navbatda, struktural-semantik tahlil usuli qo'llanilib, nutq agressiyasining turli darajalardagi (leksik, morfologik, sintaktik va fonetik) ifodalanish shakllari o'rganildi. Bu usul orqali aggressiv nutq birligining semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning kommunikativ maqsadlarga mosligi tahlil qilindi (Лето, 2022, с. 7; Маслова, 2017, с. 31).

Ikkinchidan, diskurs-analiz metodi nutq agressiyasining kontekstual, ijtimoiy va madaniy omillarga bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu metod aggressiv nutq aktlarining strategik va taktika jihatlarini tahlil qilib, ular orqali hosil bo'luvchi kommunikativ ta'sirni ochib berdi (Лазебная, 2007, с. 41; Лето, 2022, с. 50).

Uchinchidan, kontent-analiz usuli aggressiv xabarlarining ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda qay darajada uchrayotganini aniqlashga yordam berdi. Ushbu usul

agressiv kommunikatsiyaning lisoniy vositalarining tasnifi va ularning ijtimoiy ta'sirini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi (Лето, 2022, с. 68; Маслова, 2017, с. 127).

To'rtinchidan, lingvokognitiv tahlil yordamida agressiv nutq aktlari bilan bog'liq bo'lgan psixologik va kognitiv jarayonlar o'rganildi. Bu usul agressiv intensioniyalar va ularning perlokutiv ta'sirlarini aniqlashga xizmat qildi (Маслова, 2017, с. 21; Лазебная, 2007, с. 36).

Shuningdek, sopostavitel tahlil usuli orqali o'zbek va ingliz tillaridagi agressiv nutq hodisalari o'rtasidagi umumiylik va farqlar tahlil qilindi. Bu yondashuv agressiyaning lingvistik va etnomadaniy o'ziga xosliklarini aniqlashga yordam berdi (Лето, 2022, с. 149; Маслова, 2017, с. 207).

Nutq agressiyasini tahlil qilishda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. V.I. Карасик agressiyani insonning psixologik va madaniy holati bilan bog'liq kommunikativ akt sifatida ko'rib, uning ijtimoiy mavqe va ustunlikka erishish maqsadida qo'llanishini ta'kidlaydi (Карасик, 2004).

N.A. Арутюнова esa agressiyaning kognitiv-metaforik ifodalarini o'rganib, bu hodisani inson hissiy dunyosini aks ettiruvchi vosita sifatida ta'riflaydi (Арутюнова, 1990). T.V. Ларина agressiyaning madaniyatlararo lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, har bir madaniyatda agressiv nutq vositalari o'ziga xos shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi (Ларина, 2009).

D.A. Infante "verbal agressivlik" tushunchasini kommunikativ strategiya sifatida kiritib, uning asosiy maqsadi tinglovchining o'zini baholashini pasaytirishga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi (Infante, 1986). Дж. Серль ва Дж. Остин tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi esa agressiv nutq aktlarini pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular agressiv aktlarning illokuativ va perlokutiv ta'sirlarini o'rganishga katta e'tibor qaratgan (Серль, 1986; Остин, 1962).

Mazkur metodlar va ilmiy yondashuvlar uyg'unligi agressiv nutq hodisalarining lingvistik, psixologik va madaniy asoslarini har tomonlama o'rganishga imkon berdi. Tadqiqot natijalari agressiv kommunikatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunish va ularning strategik o'ziga xosligini aniqlashga xizmat qildi. Bu yondashuvlar agressiv nutq aktlarining turli kontekstlardagi ta'sirini aniqlash va ijtimoiy muloqotni yanada konstruktiv yo'naltirish imkonini beradi.

**Mazkur tadqiqot natijalari** nutq agressiyasining kognitiv-diskursiv imkoniyatlarini lingvistik, pragmatik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish orqali bir qator muhim xulosalarni ochib berdi.

Nutq agressiyasi o'z mohiyatiga ko'ra kommunikativ faoliyatning destruktiv shakli bo'lib, u tinglovchi yoki muloqot ishtirokchisiga maqsadli ravishda psixologik yoki hissiy zarar yetkazishni maqsad qilgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, agressiv nutq aktlari odatda illokuativ va perlokutiv ta'sirga ega bo'lib, ular tinglovchining hissiy holatini izdan chiqarish, o'zini o'zi baholashini pasaytirish yoki unga qo'rquv uyg'otish kabi maqsadlarga xizmat qiladi (Лазебная, 2007, с. 48; Серль, 1986).

Leksik jihatdan agressiv nutq aktlari, asosan, salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgan so'zlar, obsentsiyalar va metaforik ifodalar orqali ifodalanadi. Bu vositalar tinglovchiga hissiy bosim o'tkazish va agressor pozitsiyasini mustahkamlash uchun qo'llaniladi (Маслова, 2017, с. 31; Лето, 2022, с. 93). Shuningdek, morfologik vositalardan modallikni ifodalovchi fe'llar va orttirma darajadagi sifatlar agressiyani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Sintaktik jihatdan agressiv nutq aktlari odatda buyruq ohangida, salbiy so'z birikmalarida yoki qisqa, keskin jumlar shaklida beriladi. Bu usul agressiyaning tinglovchiga to'g'ridan-to'g'ri va kuchli ta'sir qilishini ta'minlaydi (Лето, 2022, с. 115).

Tadqiqot natijalari agressiyaning lingvistik va pragmatik ifodasi madaniy kontekstga bog'liqligini ko'rsatdi. Masalan, o'zbek tilida agressiv nutq aktlari ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri va ochiq shaklda ifodalanadi, ingliz tilida esa bu aktlar ko'proq bilvosita va yumshoq shakllarda namoyon bo'ladi (Маслова, 2017, с. 127; Ларина, 2009).

Nutq agressiyasi o'z kommunikativ strategiyalari va taktikalariga ega bo'lib, ular muloqot kontekstiga qarab farq qiladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, agressiv strategiyalar asosan ikki yo'nalishda ishlaydi: birinchisi, tinglovchiga hissiy bosim o'tkazish, ikkinchisi esa agressorning o'z mavqeini mustahkamlash (Infante, 1986; Лазебная, 2007, с. 41).

Agressiv nutq aktlari ko'pincha ijtimoiy munosabatlarni buzishga yoki ularni qayta shakllantirishga qaratilgan. Bu aktlar tinglovchining hissiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning o'ziga ishonchini pasaytirishi yoki o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga majbur qilishi mumkin (Серль, 1986; Маслова, 2017, с. 21).

Tadqiqot natijalari agressiyaning lingvistik, pragmatik va madaniyatlararo xususiyatlarini har tomonlama yoritib berdi. Agressiv nutq aktlarining leksik, sintaktik va pragmatik jihatlari chuqur tahlil qilindi va ularning ijtimoiy hamda hissiy ta'siri aniqlab berildi. Bu natijalar kommunikatsiyadagi agressiv vositalarni tushunishga va ularni yumshatish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot nutq agressiyasining kognitiv-diskursiv imkoniyatlarini lingvistik, pragmatik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot davomida

olingan natijalar agressiyaning nutq aktlari sifatida murakkab kommunikativ hodisa ekanligini va uning lingvistik hamda madaniy xususiyatlari jamiyatning ijtimoiy va madaniy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq ekanini tasdiqladi (Лазебная, 2007, с. 41; Маслова, 2017, с. 127).

Агрессив nutq aktlari leksik, sintaktik va stilistik vositalar orqali namoyon bo'lib, ular odatda tinglovchiga psixologik yoki hissiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, agressiyaning lingvistik ifodalari kontekstga, madaniyatga va muloqot ishtirokchilarining maqomiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz va o'zbek tillarida agressiv nutq aktlarining bilvosita va ochiq shakllarda namoyon bo'lishi bu hodisaning madaniyatlararo xususiyatlarini ochib berdi (Ларина, 2009; Маслова, 2017, с. 31).

Pragmatik yondashuv agressiv nutq aktlarini illokuativ va perlouktiv ta'sirlar asosida tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu ta'sirlar muloqot jarayonida agressorning o'z maqsadlariga qanday erishishini va tinglovchining psixologik holatiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashda yordam berdi (Серль, 1986; Infante, 1986). Shuningdek, bu jarayonlar agressiv kommunikatsiyaning strategik va taktik jihatlarini yoritishga imkon berdi.

Tadqiqotda shuningdek, agressiyaning madaniy kontekstdagi o'rni tahlil qilinib, turli tillarda bu fenomenning lingvistik vositalar orqali qanday namoyon bo'lishi ko'rsatildi. Bu esa agressiyaning ijtimoiy va madaniy sharoitlarga bog'liqligini yanada chuqurroq tushunish imkonini berdi (Лазебная, 2007, с. 36; Леро, 2022, с. 149).

**Umumiy xulosa shuki**, nutq agressiyasi lingvistik hodisa sifatida chuqur va ko'p qirrali tadqiqotni talab qiladi. Ushbu hodisaning turli tillarda va madaniyatlarda qanday ifodalanishi va qabul qilinishini o'rganish jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari agressiv nutq aktlarining lingvistik vositalarini to'g'ri tahlil qilish va muloqotni konstruktiv yo'nalishda boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Shu tariqa, nutq agressiyasini o'rganish nafaqat lingvistika, balki ijtimoiy muloqotning samaradorligini oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Арутюнова, Н.Д. (1990). Метафора и дискурс. Вопросы языкознания, 5, 3–15.
2. Инфанте, Д.А. (1986). Verbal aggressiveness: Conceptualization and measurement. Communication Monographs, 53(1), 44-47.

3. Карасик, В.И. (2004). Языковая личность в разных типах дискурса. Волгоград: Парадигма.

4. Лазебная, И.Б. (2007). Особенности выражения речевой агрессии в современном английском языке. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Белгородский государственный университет.

5. Ларина, Т.В. (2009). Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских культурных традиций. Москва: Языки славянской культуры.

6. Лето, Я.А. (2022). Коммуникативные средства выражения агрессии в американском политическом дискурсе (на материале интернет-публикаций и выступлений Д. Трампа). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Башкирский государственный университет.

7. Маслова, О.В. (2017). Выражение агрессии в русском языке и британском национальном варианте английского языка. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Российский университет дружбы народов.

8. Остин, Дж. (1962). Как сделать вещи с помощью слов. Оксфорд: Кларендон Пресс.

9. Серль, Дж. (1986). Основы теории речевых актов. Москва: Прогресс.